

YOSH DAVRLARINI TASNIFLASH VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdihalimova Zarina Qurbonboy qizi

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi

Milliy estrada san'ati instituti psixologi

zqurbonboyevna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17532574>

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson hayotining turli yosh davrlari psixologik jihatdan o'rganiladi, ularning shaxs shakllanishi, bilish jarayonlari va ijtimoiy moslashuvdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Yosh davrlarini to'g'ri tasniflash va ularning psixologik xususiyatlarini bilish pedagogik, psixologik hamda tarbiyaviy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yosh davrlari, shaxs, psixik rivojlanish, ontogenez, bola psixologiyasi, ijtimoiylashuv.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются психологические особенности различных возрастных этапов человеческой жизни, анализируются особенности формирования личности, познавательных процессов и социальной адаптации. Правильная классификация возрастных периодов и знание их психологических характеристик играют важную роль в педагогическом, психологическом и воспитательном процессах.

Ключевые слова: возрастные периоды, личность, психическое развитие, онтогенез, детская психология, социализация.

ANNOTATION

This article examines the psychological aspects of different stages of human life, analyzing the peculiarities of personality formation, cognitive processes, and social adaptation. Correct classification of age periods and understanding their psychological characteristics play an important role in pedagogical, psychological, and educational processes.

Keywords: age periods, personality, psychological development, ontogenesis, child psychology, socialization.

KIRISH

Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Insonning ruhiy va jismoniy rivojlanishi muayyan bosqichlarda kechadi. Har bir yosh davrida shaxsning bilish faoliyati, emotsional holati, motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos tarzda shakllanadi. Shu bois psixologiya fanida yosh davrlarini ilmiy asosda tasniflash va ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish alohida yo'nalish sifatida qaraladi. Yosh davrlarini o'rganish shaxs psixologiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Chunki insonning har bir hayot bosqichidagi ruhiy rivojlanish darajasi uning keyingi bosqichlarda qanday faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayoning psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlari psixologiyasi bu borada ham o'z-o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarni inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yoritadi.

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keying davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'ib xizmat qiladi. Shu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Rus psixologiyasida yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananov singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa

boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o'zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi davrda yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlariga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

YOSH DAVRLARINI TASNIFLASH MEZONLARI

Psixologiyada yosh davrlarini turlicha tasniflash mavjud. Ular asosan quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1. **Biologik mezon** – organizmning jismoniy yetilish darajasi (o'sish, gormonal o'zgarishlar, fiziologik rivojlanish).
2. **Ijtimoiy mezon** – insonning ijtimoiy muhitdagi roli va maqomi (maktabgacha davr, o'quvchi, talaba, mehnat faoliyati, oilaviy hayot).
3. **Psixologik mezon** – shaxsning o'zini anglash darajasi, bilish jarayonlari, hissiyot, irodaviy sifatlar va motivatsiyaning o'zgarishi.

Bu mezonlarga ko'ra, psixologlar inson hayotini quyidagi asosiy yosh bosqichlariga ajratadilar (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, A.V.Petrovskiy, J. Pijae va boshqalar tadqiqotlariga ko'ra):

1. Go'daklik davri (0–1 yosh)
2. Ilk bolalik (1–3 yosh)
3. Maktabgacha yosh (3–6 yosh)
4. Kichik maktab yoshi (7–10 yosh)
5. O'smirlik davri (11–15 yosh)
6. O'spirinlik yoki ilk yetuklik davri (16–21 yosh)
7. Kattalar davri (22–60 yosh)
8. Qarilik davri (60 yoshdan yuqori)

Shu kabi tasniflashlardan kelib chiqqan holda hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini quyidagicha tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri – tug'ilganidan 3 yoshgacha
2. Maktabgacha yosh davri – 3 yoshdan 6,7 yoshgacha
3. Kichik maktab yoshi davri – 6,7yoshdan 10,11 yoshgacha
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik davri) – 10,11 yoshdan 14,15 yoshgacha
5. Ilk o'spirinlik davri (kollej va litsey o'quvchilari) – 14,15 yoshdan 17,18 yoshgacha

Har bir yosh davri o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim-tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin.

Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil qiladi. Bu davrda yetakchi faoliyat turi – predmetlarni o'rganish hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bu yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga ajratish mumkin:

(3-4 yosh) kichik maktabgacha davr;

(4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr;

(6-7 yosh) katta maktabgacha davr.

Bola bu davrda rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bu davrda yetakch faoliyat turi – o'yindir.

Kichik maktab yosh davrida bola fan asoslarini o'rganish uchun biologic va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi, qiziquvchanligi va ihonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi.

O'rta maktab Yoshi (o'smirlik davri) bu davrda bolada psixologik va fiziologik o'zgarishlar yuz beradi. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi kuzatiladi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutadilar. Bu o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin hali kattalar hayotida o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smirlik davri "o'tish davri", "krizis davr", "qiyin davr" kabinomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Bu davrda yetakchi faoliyat turi – o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir.

Ilk o'spirinlik davri "kamolot bo'sag'asi" deb nomlanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb atash mumkin. Ilk o'spirinlik davri asosan mustaqil hayotning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinning shaxsiga, o'z-o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni taavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

XULOSA

Yosh davrlarini chuqur o'rganish ta'lim va tarbiya jarayonida individual yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, boshlang'ich maktab yoshida o'quvchilarning diqqat va xotira jarayonlari hali barqaror emasligi uchun o'qituvchi mashg'ulotlarni ko'proq o'yinli usulda olib borishi zarur. Psixologlar uchun esa yosh davrlarini bilish – inson ruhiy rivojlanishidagi me'yor va og'ishlarni aniqlashda muhim diagnostik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki insonning psixik rivojlanishi uzluksiz, ammo bosqichma-bosqich kechuvchi jarayondir. Har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini bilish shaxsni to'g'ri rivojlantirish, unga individual yondashuvni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yosh psixologiyasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva, M.Djumabayeva – “Yosh va pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2007
2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova - “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” T-2018
3. <https://uz.m.wikipedia.org>